

**“HEART” – “YURAK” SO‘ZINING INGLIZ
ADABIYOTIDAGI TALQINI VA O‘ZBEK
TILIDAGI BADIY TARJIMASI (JEYN
OSTINNING “PRIDE AND PREJUDICE” ASARI
MISQLIDA)**

*Mo‘soyeva Hayitgul O‘roqovna, Samarqand davlat chet tillar
instituti mustaqil tadqiqotchisi*

**THE INTERPRETATION OF THE WORD
“HEART” – “YURAK” IN ENGLISH
LITERATURE AND ITS ARTISTIC
TRANSLATION INTO UZBEK (BASED ON JANE
AUSTEN’S “PRIDE AND PREJUDICE”)**

*Mo‘soyeva Hayitgul O‘roqovna, Independent researcher at
Samarkand State Institute of Foreign Languages*

**ТОЛКОВАНИЕ СЛОВА “HEART” – “СЕРДЦЕ” В
АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И ЕГО
ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПЕРЕВОД НА
УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА
ЖЕЙН ОСТИН “ГОРДОСТЬ И
ПРЕДУБЕЖДЕНИЕ”)**

*Мусоева Хайитгул Урковна, независимый исследователь
Самарканского государственного института
иностранных языков*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz adabiyotida keng qo‘llaniladigan “heart” so‘zining semantik, stilistik va madaniy ma’nolari hamda uning o‘zbek tiliga badiiy tarjimadagi ifodalananish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida Jeyn Ostinning “Pride and Prejudice” asaridagi misollar va ularning o‘zbek tilidagi tarjimalari turadi. Tahlil jarayonida “heart” so‘zining obruzli, emotsiyal va metaforik mazmuni tarjimada qanday saqlanib qolganligi yoki yo‘qotilganligi ko‘rib chiqiladi. Maqolada grammatik va stilistik tahlil orqali madaniyatlararo tarjimada hissiy noziklikni ifodalash muhimligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: yurak, emotsiyal noziklik, metafora, badiiy tarjima, semantik tahlil, stilistik siljish.

Abstract: This article analyzes the semantic, stylistic, and cultural nuances of the word “heart” in English literary texts and its artistic translation into Uzbek. The study focuses on examples from Jane Austen’s novel “Pride and Prejudice” and their corresponding renderings in Uzbek, particularly examining how emotional and metaphorical meanings are preserved, lost, or adapted in translation. Through grammatical and stylistic analysis, the research highlights the importance of conveying emotional subtlety (“emotional nuance”) and metaphorical depth in cross-cultural literary translation. The findings reveal that while the Uzbek translations capture the core meaning, certain emotional and stylistic layers of the original are occasionally omitted or transformed in accordance with the target culture’s expressive norms.

Key words: heart, emotional nuance, metaphor, literary translation, semantic analysis, stylistic shift.


Аннотация: В данной статье анализируются семантические, стилистические и культурные нюансы слова “сердце” в английских литературных текстах и его художественный перевод на узбекский язык. Исследование сосредоточено на примерах из романа Джейн Остин



<https://orcid.org/0009-0007-6599-1043>

e-mail:

guli.dovurova7@gmail.com



“Гордость и предубеждение” и их соответствующих переводах на узбекский язык, с особым вниманием к сохранению, утрате или адаптации эмоциональных и метафорических значений при переводе. Посредством грамматического и стилистического анализа подчёркивается важность передачи эмоциональной тонкости (“эмоционального оттенка”) и метафорической глубины в межкультурном литературном переводе. Результаты показывают, что, несмотря на сохранение основного значения в узбекских переводах, некоторые эмоциональные и стилистические слои оригинального текста иногда опускаются или трансформируются в соответствии с нормами выразительности культуры перевода.

Ключевые слова: сердце, эмоциональный оттенок, метафора, литературный перевод, семантический анализ, стилистическое смещение.

KIRISH

(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Tarjimashunoslikda badiiy matnlarni tahlil qilish jarayonida leksik birliklarning semantik, stilistik va madaniy o‘ziga xosliklarini chuqur o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, adabiy matnlarda tez-tez uchraydigan obrazli so‘zlar va metaforalar tarjima jarayonida o‘z ifodasini qanday saqlab qolgani yoki o‘zgargani muhim tadqiqot obyektiga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tilidagi “heart” so‘zining turli kontekstlardagi ishlatalishi va uning o‘zbek tiliga badiiy tarjimasni orqali qanday ifodalangani alohida tahlilga loyiqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD
(ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Jeyn Ostin (1775-1817) ingliz adabiyotidagi eng nufuzli yozuvchilaridan biri. Uning asarlari, xususan, “Pride and Prejudice” (“Andisha va g‘urur”) realizm, ijtimoiy sharh va nafis adabiy uslubni uyg‘unlashtirib, ingliz romanchilagini shakllantirdi. Jeyn Ostinning “Pride and Prejudice” (“Andisha va g‘urur”) romanini nafaqat qiziqarli syujeti va esda qolarli personajlari, balki stilistik vositalardan mohirona foydalangani uchun ingliz adabiyotining poydevori hisoblanadi. Muallifning hissiy noziklik, ijtimoiy kuzatuv va lingistik nafislikni uyg‘unlashtirish qobiliyatini uning ishini abadiylashtirdi va adabiy tahlil va hayratni ilhomlantirishda davom etmoqda. Jeyn Ostinning “Pride and Prejudice” (“Andisha va g‘urur”) asari – ijtimoiy sharhlar va xarakterlarni o‘rganishning eng yaxshi asari – “yurak” so‘zini turli xil va stilistik jihatdan boy kontekstlarda qo‘llaydi[2].

MUHOKAMA

(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Jeyn Ostin “Pride and Prejudice” asarida qishloq dvoryanining qizi Elizabeth Bennet bilan o‘zining kelib chiqishi, boyligi ila mag‘rur boy pomeshchikning o‘g‘li Fitsuiyam Darsi o‘rtasidagi sarguzashtlarni hikoya

qiladi. Asar 1813-yilda nashr qilinib, adabiyot dunyosida katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Ushbu asar haqida o‘sha paytdagi “Britaniya tanqidchisi” jurnali shunday yozgan edi: “Asar shu paytgacha o‘quvchilar hukmiga havola qilingan bu turdagি hamma romanlardan yuqori turadi”. Jeyn Ostinning “Pride and Prejudice” asarini o‘zbek tiliga “Andisha va g‘urur” nomi bilan Muhabbat Ismoilova tarjima qilgan. Tarjimon Muhabbat Ismoilova 1951-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. U 1969–1974-yillarda davomida Toshkent davlat chet tillar institutining ingliz filologiyasi fakultetida tahsil olgan[3].

Jeyn Ostinning “Pride and Prejudice” asaridagi “heart” – “yurak” so‘zli birikmalar stilistik bo‘yoqdorlikka ega bo‘lib, asarning turli boblarida turlicha shakkarda ifodalanadi: **1) I will send a few lines by you to assure him of my hearty consent to his marrying whichever he chooses of the girls (1-bob, 4-sahifa).** **2) To be fond of dancing was a certain step towards falling in love; and very lively hopes of Mr. Bingley’s heart were entertained (3-bob, 10-sahifa).** **3) We can all begin freely – a slight preference is natural enough; but there are very few of us who have heart enough to be really in love without encouragement (6-bob, 26-sahifa).** **4) ‘Well,’ said Charlotte, ‘I wish Jane success with all my heart (6-bob, 27-sahifa).** **5) I remember the time when I liked a red coat myself very well—and, indeed, so I do still at my heart (7-bob, 36-sahifa).** **6) I wish with all my heart she were well settled (8-bob, 44-sahifa).** **7) That is capital’, added her sister, and they both laughed heartily (8-bob, 44-sahifa).** **8) But his sisters gave it their hearty assent (8-bob, 44-sahifa).** **9) Elizabeth thanked him from her heart (8-bob, 45-sahifa).** **10) With all my heart; I will buy Pemberley itself if Darcy will sell it’ (8-bob, 46-sahifa)[4].**

Jeyn Ostin tomonidan yaratilgan inglizcha asl jumla: **1) I will send a few lines by you to assure**

him of my hearty consent to his marrying whichever he chooses of the girls(1-bob, 4-sahifa).

Muhabbat Ismoilova tomonidan o‘zbekcha tarjimasi: 1)Xohlaysizmi, men eng yoqtirgan qizimizni unga turmushga berishimizni va’da qilib xat yozib, sizdan berib yuboraman?

Grammatik tahlil:

I will send – kelajak zamondagi fe’l (future simple tense);

a few lines – aniqlangan miqdordagi ko‘plik ot (few + countable noun);

by you – vosita holi (agent/means) – bu yerda “siz orqali”;

to assure him – maqsad ko‘rsatuvchi infinitiv konstruksiya (to + verb), “uni ishontirish uchun” [5];

of my hearty consent – “my” egalik olmoshi + “hearty consent” ot birikmasi, bu yerda “yurakdan rozilik” ma’nosida;

to his marrying – gerund (marrying) – fe’lning otlashgan shakli, “uning uylanishi” degan ma’noni beradi;

whichever he chooses of the girls – murakkab bog‘lovchi ifoda, bu yerda “qizlardan qaysi birini tanlasa” degani;

“Hearty consent” iborasi stilistik jihatdan hissiy, ijobiy kayfiyatda, rozilikning chin dildan ekani ta’kidlangan. “Hearty” so‘zi bu yerda metaforik ishlatilgan – “heart” (yurak) so‘zidan olingan. Bu konstruksiya matnga sadoqat, quvonch va oila qadriyatlariga hurmat hissini qo‘sadi. Jumladagi umumiyligi ohangda yengil, kulgili, ironiya aralashgan bo‘lib, bu Jeyn Ostin uslubiga xosdir [6].

NATIJALAR (РЕЗУЛТАТЫ/RESULTS). Jeyn Ostin tomonidan asarda keltirilgan yana bir inglizcha asl jumla: 2) *To be fond of dancing was a certain step towards falling in love; and very lively hopes of Mr. Bingley’s heart were entertained* (3-bob, 10-sahifa).

Muhabbat Ismoilova tomonidan o‘zbekcha tarjimasi: 2)*Hamma qizlar o‘zlarining yaqin kunlarda mister Binglining yuragini zabit eta olishlariga umid qilishardi.*

Ushbu jumlaning quyidagi grammatik va stilistik tahlili tarjimada “heart” – “yurak” so‘zining qanday semantik va hissiy o‘zgarishga uchraganini ochib beradi. Grammatik tahlil: To be fond of dancing – infinitiv konstruksiya (ot vazifasida): “raqsga qiziqish”;

was a certain step towards falling in love – bu qism sabab-oqibat aloqasini bildiradi;

very lively hopes – kuchli, jonli umidlar (intensiv sifatcha “very lively”);

of Mr. Bingley’s heart – egalik konstruksiysi (genitive case): “Binglining yuragi(ning)”;

were entertained – passiv shakldagi fe’l: “umidlar mavjud edi” yoki “bildirilgan edi”; Heart bu yerda shunchaki biologik a’zo emas, balki romantik tuyg‘ular, muhabbat istagi ramzi sifatida ishlatilgan. Inglizcha matnda “Mr. Bingley’s heart” iborasi shaxsiy, ichki tuyg‘ular markazi sifatida ko‘rsatilgan. Tarjimada esa “yuragini zabit etish” iborasi metafora orqali berilgan – bu o‘zbek adabiy tilida muhabbatni bildiruvchi o‘ziga xos uslubiy vositadir[3].

XULOSA

(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION): Xulosa sifatida aytganda, tarjimada “heart” so‘zining denotativ ma’nosи (“yurak”) ko‘pincha saqlanadi, ammo uning konnotativ – ya’ni hissiy, obrazli va stilistik jihatlari ba’zan yo‘qotiladi yoki mahalliy madaniyatga xos iboralar orqali ifodalanadi. Tarjimada yuzaga kelgan stilistik susayishlar (“stylistic weakening”) yoki madaniy kompensatsiyalar (“cultural compensation”) tarjimonning maqsadli auditoriyaga moslashtirishga bo‘lgan intilishini ko‘rsatadi. Bu esa adabiy tarjimada muallif uslubini iloji boricha saqlab qolish va emotsiyal noziklikni (emotional nuance) to‘liq yetkazish zarurligini ta’kidlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES):

1. Alsadi Hanan A Contrastive Study of Conceptual Metaphor between Arabic and English. PhD Dissertation, Al-Yarmouk University, Irbid, Jordan. 2011.
2. Austen Jane. Pride and Prejudice. – New York. 1813. – 476 p.
3. Galperin I. R. Stylistics. Higher School Publishing House. 1977.
4. Ismoilova M. Andisha va g‘urur. – Toshkent. 2017. – 404 b.
5. Leech G. & Short. Style in Fiction. Longman. 1981. – 182 p.
6. Sharif A. Metaphorical Conceptualization of Happiness and Anger in English and Arabic: A Comparative Study. MA Thesis, Yarmouk University, Irbid, Jordan. 2007